

“XAVFSIZLIK TIZIMI UCHUN QO‘RIQLASH FAOLIYATINING AVTOMATLASHTIRILGAN QO‘RIQLASH YONG‘IN TIZIMINI EKSPLUATATSIYAGA TADBIQ ETISH MASALASI”.

YULDASHEV SARDORBЕК ESHQOBILOVICH

**O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti magistratura tinglovchisi, kapitan**

Annotatsiya. Ushbu maqolada qo‘riqlashni texnik vositalarining ta‘mirlashga qo‘yilgan talablar, qo‘riqlashning texnik vositaning yaroqli holatini saqlash va qayta tiklashdagi kompleks tashkiliy va texnik choralar, qo‘riqlashning texnik vositani o‘z vaqtida sifatli ta‘mirlash, ularning doimiy ishchi holati to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘riqlanadigan obyektlar, texnik vositalar, texnik xizmat, saqlash, rejali – o‘rta va kapital ta‘mirlash ishlari, ishchi, ishsiz holat.

Аннотация. В данной статье представлены сведения о требованиях к ремонту технических средств охраны, комплексных организационно-технических мероприятиях по поддержанию и восстановлению исправного состояния КТВ, своевременному качественному ремонту КТВ, их постоянному рабочему состоянию.

Ключевые слова: охраняемые объекты, технические средства, техническое обслуживание, хранение, планово – средний и капитальный ремонт, рабочее, нерабочее состояние.

Abstract. This article provides information on the requirements for the repair of guard technical means, complex organizational and technical measures in the maintenance and restoration of the usable state of technical means of protection, timely quality repair of technical means of protection, their permanent working state.

Keywords: protected facilities, technical means, maintenance, storage, scheduled – medium and overhaul work, working, unemployed condition.

Hozirgi kunda mamlakatimizda davlat, o‘ta muhim, toifalangan va boshqa obyektlarni, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini ishonchli qo‘riqlanishini ta‘minlaydigan sifat jihatdan yangi tizimni joriy etish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillaridan boshlab, O‘zbekiston Respublikasining harbiy tuzulmalari o‘ta muxim obektlarini asosiy tuzilmaviy bo‘g‘inlarining texnik qo‘riqlash vositalarni ta‘mirlovchi ustaxonalar faoliyati e‘tibordan qolishi shuningdek birinchi navbatda, qo‘riqlash maqsadida jangovar-xizmat faoliyatida foydalanayotgan texnik qo‘riqlash vositalari va ularning ishonchli ish faoliyati uchun, ularga texnik xizmat ko‘rsatish ta‘mirlash masalalari, xavfsizlikga qaratilgan bo‘lib, u

yuqori turuvchi qo‘mondonlikning meyoriy hujjatlari va Umumharbiy nizom talablariga muvofiq tashkil etilmoqda. Ma‘lumki, jangovar xizmatni olib borishda bu borada muxandislik-texnik ta‘minot masalasi yuqori o‘rinda turadi. Shuningdek, jangovar xizmatni muxandislik-texnik ta‘minoti bugungi kunga kelib ijobiy natijalarga erishib kelmoqda. Demak, xozirgi vaqtda ko‘plab obyektlarimizning texnik qo‘riqlash vositalari zamonaviy texnik qo‘riqlash vositalariga almashtirilmoqda.

2018 yil 27 apreldagi PQ–3682-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2018 yil 12 dekabr PQ-4060-son qarori “Jismoniy va yuridik shaxslar mulkining qo‘riqlanishini ta‘minlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, ushbu sohada sifatli servis xizmatini ko‘rsatishning yagona texnik talablari va mexanizmlarining yo‘qligi” ushbu maqolani dolzarbligini asoslaydi.

Hozirgi vaqtda Qurolli Kuchlar tizimidagi qo‘riqlanadigan obyektlarida texnik vositalar faoliyatining apparaturalarni ta‘mirlash va qayta tiklash shuningdek texnik xizmat ko‘rsatish, ta‘mirlash ishlari xususiy tadbirkor subyektlarining ustaxonalari tomonidan o‘tkazilmoqda. Bugungi kunda XXI asr texnologiyalari davrida johon bozorida qo‘riqlash texnologiyalarning eng takomillashgan turlari ishlab chiqilishini kuzatib borishimiz mumkin, biroq, toshkilot tuzilmalarning tegishli mansabdor shaxslarida ushbu texnologiyalar chiqishi tufayli mavjud apparatlar eskirib qolishi haqida tushunchalar yuzaga kelishi, ularni yangilarga almashtirishga intilishlari paydo bo‘lmoqda;

Qo‘riqlashni texnik vositalarining ta‘mirlashga qo‘yilgan talablardan quyidagilarni talab etadi:

qo‘riqlashning texnik vositaning yaroqli holatini saqlash va qayta tiklashdagi kompleks tashkiliy va texnik choralar majmuasidir;

qo‘riqlashning texnik vositani o‘z vaqtida sifatli ta‘mirlash, ularning doimiy ishchi holatini ta‘minlash sharti hisoblanadi;

qo‘riqlashning texnik vositaga, ularning tarkibiy qismlarining buzilishi va shikastlanishi hamda ishlar hajmiga ko‘ra quyidagi ta‘mirlash ishlarining turlari belgilangan:



rejadan tashqari – joriy va kafolatli;

rejali – o‘rta va kapital.

Joriy ta‘mirlash – zaruriy hollarda qo‘riqlashning texnik vositaning kafolatli ishchi jarayonini ta‘minlash yoki qayta tiklash uchun navbatdagi o‘rta yoki kapital ta‘mirlashgacha o‘tkaziladi;

Reglament xajmidagi texnik xizmat ishlarini olib borish.

qo‘riqlashning texnik vositalarni parametrik sozlash va mavsumiy texnik xizmat ishlarini tashkillashtirish va uni o‘tkazish tadbirlaridir.



Ushbu ko'rsatilgan rasmlarda texnik ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

Kafolatli ta'mirlash – pudratchi korxonaga reklamatsiyalar berish orqali kafolatli muddat ichida mahsulotlarning ishchi holatini tiklashga qaratilgan choralardir;

O'rta ta'mirlash – qo'riqlashning texnik vositaning resursi va foydalanish tavsiflarini ta'mirlash yoki ishdan chiqqan bo'g'inlar va alohida yelementlarni almashtirish orqali qayta tiklash maqsadida amalga oshiriladi. Kapital ta'mirlash mahsulotning resurslarini to'liq (to'liqqa yaqin) qayta tiklash uchun o'tkaziladi. U o'z ichiga mahsulotlarni qismlarga ajratish, defektatsiyalash, tarkibiy qismlarni almashtirish yoki ta'mirlash, yig'ish, kompleks tekshirish, sozlash va sinovdan o'tkazish ishlarini oladi;

Qoidaga ko'ra qo'riqlashni texnik vositalar mexanizimini tashkillashtirishda qo'riqlanayotgan obyektning tabiatini tafsiflanishda quyidagilarni kuzatishimiz mumkin:

Qo'riqlashning texnik vositalari (qo'riqlashning texnik vosita) – qo'riqlanadigan obyektlarni tajovuzlardan himoya qilish uchun foydalaniladigan, mustaqil vazifalarni bajaradigan, konstruktiv jihatdan yakunlangan qurilmalar;

Qo'riqlanadigan obyekt – belgilangan tartibda qo'riqlashga olingan jismoniy va yuridik shaxslarning binolari, imoratlari, inshootlari, ularning hududlari, joyning

uchastkalari, transport vositalari, transportda tashiladigan yuklari, pul mablagʻlari, moddiy boyliklari va boshqa mol-mulki, shuningdek jismoniy shaxs tushuniladi [2].

QVT ishonchliligi – maʼlum bir texnik mahsulotning belgilangan muddat ichida, talab qilinadigan vazifalarini saqlash, texnik xizmat, taʼmirlash, saqlash talablariga javob beradigan xususiyatlari tushuniladi. QVTning ishonchligiga taʼsir qiladigan omillar quyidagicha:

ishlashdan rad etish – voqea hisoblanib, texnik mahsulotning ish faoliyatini buzilishi deb hisoblanadi.

ishlashdan rad etishning bir turi;

signal yoʻqotish – datchik aniqlash hududida tartib buzar paydo boʻlganida trevoga signalining berilmasligi;

yaroqli holat (yaroqlik) – texnik mahsulotning meyoriy-texnik hujjatlardagi talablarga javob beradigan xususiyati hisoblanadi;

yaroqsiz holat (yaroqsizlik) – texnik mahsulotning meyoriy - texnik hujjatlardagi talablarga javob bermaslik xususiyati hisoblanadi;

ishchi holat – texnik mahsulot ishiga taʼsir koʻrsatmagan holda, uning barcha parametrlari meyoriy-texnik hujjatlar talablariga qisman javob berishi;

ishsiz holat – texnik mahsulotning barcha parametrlari meyoriy - texnik hujjatlar talablariga toʻliq javob bermasligi;

ohirgi holat – obyektning holati boʻlib, ushbu holatda undan oʻz vazifasi boʻyicha foydalanish yoki uning yaroqli holatini tiklash maqsadga muvofiq emas;

defekt – mahsulotning belgilangan talablarga har bir alohida javob bermasligi;

shikastlanish – mahsulot ishchi holatini saqlagan holda, yaroqli holatdagi buzilish;

texnik resurs – mahsulot foydalanish yoki taʼmirdan keyingi vaqtdan soʻng ishlash vaqti; xizmat vaqti – mahsulot foydalanishga kiritilgan vaqtdan boshlab kalendar ish vaqti[3].

Texnik vositalar bilan texnik foydalanilish tadbirlariga quyidagilar kiradi:

foydalanishga kiritish;

shaxsiy tarkibni foydalanishga tayyorlash va kiritish;

texnik foydalanishni rejalashtirish;

texnik xizmat;

taʼmirlash;

metrologiya taʼminoti;

saqlash;

qoʻriqlashning texnik vositani ishonchligi boʻyicha maʼlumot yigʻish;

texnik hujjatlarni yuritish;

moddiy-texnik taʼminot;

qoʻriqlashning texnik vosita bilan foydalanilganda xavfsizlik choralari qoidalari;

qoʻriqlashning texnik vositani texnik holati va foydalanilish sifatini nazorat qilish;

reklamatsiya ishi;

qo'riqlashning texnik vositani hisobdan chiqarish.

Quyidagilar qo'riqlashning texnik vositadan to'g'ri texnik foydalanilishni ta'minlaydigan asosiy shartlar hisoblanadi:

qo'riqlashning texnik vositadan foydalanadigan javobgar shaxsiy tarkib va barcha mansabdor shaxslar tomonidan texnik foydalanishni tashkillashtirish bo'yicha hujjatlarini bilish va bajarish;

qo'riqlashning texnik vositadan foydalanadigan mutaxassislarni tanlash va joy-joyiga qo'yish;

qo'riqlashning texnik vositaga xizmat ko'rsatuvchi shaxslar tomonidan qo'riqlashning texnik vositaning tuzilishi, ishlash prinsiplari, ularni o'rnatish va foydalanish bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi;

qo'riqlashning texnik vosita texnik foydalanishni rejalashtirish va tashkillashtirish;

qo'riqlashning texnik vositani bo'linmalar va javobgar shaxslarga birlashtirish;

qo'riqlashning texnik vosita texnik holati, ko'rsatilayotgan texnik xizmat va ta'mirlash ishlarini komandirlar (boshliqlar) tomonidan tizimli ravishda nazorat qilish;

qo'riqlashning texnik vositaga xizmat ko'rsatuvchi shaxslarni texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarida xavfsizlik qoidalariga rioya etishga o'rgatish;

bo'linmalarni zaruriy moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash;

qo'riqlashning texnik vositaning avariyaaviy ishdan chiqish sabablarini va ularga shikast yetkazilishini, xavfsizlik texnikasi qoidalarining buzilishi holatlari bo'yicha aybdor shaxslarni intizomiy va moddiy javobgarlikka tortgan holda surishtiruv ishlarini o'tkazish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish kerakki, hozirgi vaqtda obyekt xavfsizligini ta'minlash uchun qo'riqlashning texnik vositaning ta'minoti bosqichma-bosqich amalga oshirib borilmoqda, biroq ularni ekspluatatsiyasiga shtatli QVT mutaxassislari jalb etilmayapti. Sababini o'rganish vaqtida ko'pgina Qurolli kuchlar tizimi texnik qo'riqlash vositalari xizmatidan foydalanib kelish barobari qo'riqlashning texnik vosita apparaturalarni jangovar xizmatga jalb etilib, yuqoridagi ekspluatatsiya talablari uchun ustaxonalar tashkillashtirilmagani, ularga javobgar shaxslar birlashtirilmaganligi yoki birlashtirilgan xarbiy xizmatchilarning mutaxassisligi umuman boshqa soxaga tegishliligi aniqlangan. qo'riqlashning texnik vosita bilan texnik foydalanish davomida yuzaga kelayotgan muammolarni o'z vaqtida hal etish, mazkur sohada sifatli ilmiy-amaliy tadqiqotlarni olib borish, shuningdek yuqorida keltirilgan tizimli muammolarni hal etish maqsadida respublikamizning ushbu soha uchun kadrlarni chiqaruvchi oliy harbiy ta'lim muassasalarining qoshida yagona qo'riqlashning texnik vosita tadqiqot markazi faoliyatini yo'lga qo'yish shuningdek Qurolli Kuchlar tizimida xavfsizlikni ta'minlovchi texnik vositalarning ta'mirlash jarayonida nazariy va amaliy mexanizimlarini

tahlililashda, rivojlanish istiqbollari uchun harbiy mutaxassislarning ishchi o‘rinlarini ochish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shuningdek toifalangan obektlarning maxfiylik talablariga to‘laonli roiya etish masalasini xam ko‘rib chiqqan bo‘lamiz va obyektning jangaovar xizmat faoliyati uchun foydalanilayotgan qo‘riqlashning texnik vosita ustaxonalari orqali ishonchilik masalasiga ham yechim topa olgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021 y., 06/21/27/1116-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4997-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.02.2021 y., 07/21/4997/0131-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021 y., 07/21/5235/0840-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 dekabrdaagi “Jismoniy va yuridik shaxslar mulkining qo‘riqlanishini ta’minlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4060-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.12.2018 y., 07/18/4060/2312-son; 07.03.2019 y., 07/19/4229/2710-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 23.07.2021 y., 07/21/5190/0689-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari. “SHARQ” Nashriyot-matbaa AK Bosh tahririyati. T.: 2007.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi bo‘linmalari tomonidan qo‘riqlanadigan obyektlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida” 930-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.11.2019 y., 09/19/930/4046-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi,